



“Effectiveness of Legislation as the Solid Foundation of New Uzbekistan’s Reforms”

Aziza Donaeva,
Senior Adviser at the Institute for Legislative Analysis
and Regulatory Impact Assessment
under the Ministry of Justice

Abstract: This article analyzes the activities of the Institute for Legislative Analysis and Regulatory Impact Assessment under the Ministry of Justice in 2025 within the framework of the “Uzbekistan – 2030” Strategy. It highlights the implementation of regulatory impact assessment, the “regulatory guillotine” mechanism, systematization of legislation, scientific expertise, anti-corruption assessment, as well as measures aimed at simplifying the legal environment for entrepreneurship, and examines their significance in improving the quality and effectiveness of legal reforms.

Keywords: rule of law, regulatory impact assessment (RIA), systematization of legislation, regulatory guillotine, normative legal acts, scientific expertise, anti-corruption expertise, reduction of administrative burden, business environment, legal reforms.

QONUNCHILIK SAMARADORLIGI – YANGI O‘ZBEKISTON ISLOHOTLARINING MUSTAHKAM POYDEVORI

Aziza Donayeva,
Adliya vazirligi huzuridagi
Qonunchilikni tahlil qilish
va tartibga solish ta’sirini
baholash instituti katta maslahatchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida qonunchilikni tahlil qilish va tartibga solish ta’sirini baholash institutining 2025-yildagi



faoliyati tahlil qilingan. Unda tartibga solish ta'sirini baholash, "tartibga solish gilotinasini", qonunchilikni tizimlashtirish, ilmiy ekspertiza, korrupsiyaga qarshi baholash hamda tadbirkorlik uchun huquqiy muhitni soddalashtirish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar va ularning huquqiy islohotlar sifatini oshirishdagi ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: qonun ustuvorligi, tartibga solish ta'sirini baholash (TSTB), qonunchilikni tizimlashtirish, tartibga solish gilotinasini, normativ-huquqiy hujjatlar, ilmiy ekspertiza, korrupsiyaga qarshi ekspertiza, ma'muriy yukni qisqartirish, tadbirkorlik muhiti, huquqiy islohotlar.

"O'zbekiston – 2030" strategiyasida qonun ustuvorligi, samarali davlat boshqaruvi va inson manfaatlarini ta'minlash ustuvor vazifa sifatida belgilab berilgan. Muhtaram Prezidentimiz rahnamoligida olib borilayotgan islohotlar natijasida qonunchilikni shakllantirish emas, balki uning **amalda qanday ishlayotgani, jamiyatga qanday ta'sir ko'rsatayotgani** bosh mezonga aylandi.

Ana shu muhim yo'nalishda Adliya vazirligi huzuridagi **Qonunchilikni tahlil qilish va tartibga solish ta'sirini baholash institutining 2025-yildagi faoliyati** qonun ijodkorligi sifatini oshirish, ortiqcha va samarasiz normalardan voz kechish, davlat va jamiyat o'rtasidagi huquqiy muvozanatni ta'minlashga qaratilgan tizimli ishlar bilan e'tiborli bo'ldi.

Tartibga solish ta'sirini baholash: sifatga qaratilgan yondashuv

2025-yilda Hukumat qarori bilan 100 dan ortiq normativ-huquqiy hujjatni qamrab olgan tartibga solish ta'sirini baholash rejasi tasdiqlandi. Hisobot davrida yuzga yaqin tahlil hisobotlari ko'rib chiqilib, qonunchilikni takomillashtirishga qaratilgan 20 dan ortiq aniq takliflar ishlab chiqildi.

Natijada 4 ta eskirgan va amalda ahamiyatini yo'qotgan normativ-huquqiy hujjat bekor qilindi, yana 8 tasini bekor qilish bo'yicha loyihalar ishlab chiqildi. Bu esa qonunchilikdagi takrorlanishlar, ortiqcha ma'muriy yuk va huquqiy noaniqliklarni bartaraf etishga xizmat qildi.

"Tartibga solish gilotinasini": eski normalardan xalos bo'lish



Institut tashabbusi bilan “tartibga solish gilotinasi” usuli jadal joriy etildi. Qonunlar, Prezident va Hukumat hujjatlari dolzarbligi tahlil qilinib, 24 ta qonun, 119 ta Prezident hujjati, 356 ta Hukumat qarori o‘z ahamiyatini yo‘qotgani aniqlandi va ularni (qismini) bekor qilish bo‘yicha qarorlar qabul qilindi.

Bu jarayon qonunchilikni soddalashtirish, uni zamonaviy islohotlar talabiga moslashtirishda muhim qadam bo‘ldi.

Tizimlashtirish: yaxlit huquqiy maydon sari

2025-yilda qonunchilikni konsolidatsiyalash orqali yirik sohaviy islohotlar amalga oshirildi. Jumladan, “Transport to‘g‘risida” hamda “Davlat qo‘llab-quvvatlov choralari to‘g‘risida”gi yangi qonun loyihalari ishlab chiqildi.

Shuningdek, mudofaa, jamoat xavfsizligi, jinoyat-protsessual, sanoat xavfsizligi, tashqi ishlar, kapital bozori va moliya sohalarida yuzlab hujjatlar qayta ko‘rib chiqilib, kollizion va takrorlovchi normalar bartaraf etildi. Bu orqali huquqiy tizimning yaxlitligi va aniqligi ta‘minlandi.

Ilmiy ekspertiza va konstitutsiyaviylik ustuvorligi

Qonun ijodkorligida ilmiy yondashuvni kuchaytirish maqsadida normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini **ilmiy ekspertizadan o‘tkazish bo‘yicha namunaviy uslubiyot ishlab chiqildi va amaliyotga** joriy etildi. Shuningdek, Konstitutsiya normalariga muvofiqlikni baholash bo‘yicha **maxsus uslubiy tavsiyalar** ishlab chiqilib, Konstitutsiyaviy sud bilan hamkorlik yo‘lga qo‘yildi.

Bu qadamlar qonun loyihalarining inson huquq va erkinliklariga muvofiqligini ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Tadbirkorlik uchun shaffof muhit

Prezident Farmoni ijrosi doirasida 34 ta soha bo‘yicha 40 mingdan ortiq majburiy talablar Yagona elektron reyestrqa kiritilib, 2025-yil 1-iyuldan reyestr to‘liq ishga tushirildi. Bu tadbirkorlar va aholi uchun huquqiy axborotga ochiq va qulay kirish imkonini yaratdi.



Birgina veterinariya sohasida o'tkazilgan tahlillar natijasida, 1600 dan ortiq tadbirkorlarga ortiqcha yuk bo'lib kelayotgan va o'z ahamiyatini yo'qotgan majburiy talablarning bekor qilinishi ta'minlandi.

Qonunlar samaradorligi va korrupsiyaga qarshi kurash

2025-yilda 100 ta normativ-huquqiy hujjat samaradorligi KPI asosida baholandi, joylarda o'rganishlar o'tkazilib, aniq muammolar va yechimlar ishlab chiqildi. Shu bilan birga, 530 ta normativ-huquqiy hujjat korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazilib, aniqlangan korrupsiyaviy omillarni bartaraf etish choralari belgilandi.

Xalqaro hamkorlik va kadrlar salohiyati

Institutning xalqaro tajribaga tayanish siyosati doirasida Germaniya, Finlyandiya va boshqa davlatlar ekspertlari bilan hamkorlik yo'lga qo'yildi, xodimlar malakasi oshirildi, ilmiy-amaliy seminarlar tashkil etildi.

Xulosa qilib aytganda, Adliya vazirligi huzuridagi Qonunchilikni tahlil qilish va tartibga solish ta'sirini baholash institutining 2025-yildagi faoliyati Yangi O'zbekistonda qonun ijodkorligini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish, huquqiy tizimni inson manfaatlariga xizmat qiladigan samarali mexanizmga aylantirishga qaratilgan izchil islohotlar bilan yodda qoldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida 2023-yil 11-sentyabrdagi PF–158-son Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'muriy islohotlar doirasida adliya organlari va muassasalarining mas'uliyatini yanada oshirish to'g'risida" 2024-yil 24-maydagi PF–80-son Farmoni.